Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari.....458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан).....475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.....484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli.....493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari.....501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari.....512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish.....518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi.....528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili.....539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг.....546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish.....554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish.....563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari.....574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari.....582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish.....590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini.....602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish.....613

ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar davrida davlat-xususiy sheriklikning mohiyati.....622
KARIMOV JAMSHID NIZOMIDDIN O‘G‘LI
Mamlakatimiz kichik sanoat zonalarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....633
JUMABOYEV DILMUROD ABDIFATTO O‘G‘LI
Quyosh va shamol elektr stansiyalari samaradorligini uch qatlamda baholash.....641
BO‘RIBAYEVA QUNDIZ MURATBAYEVNA
O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklari mahsulotlari hajmini prognozlash: TREND modeli yondashuvi.....649
ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Davlat iqtisodiyotining rivojlanish evolyutsiyasida davlat-xususiy sheriklikning o‘rni va ahamiyati.....657
КЕНДЖАЕВА ДИЛДОРА ХУДАЙБЕРГАНОВНА
Объяснимый искусственный интеллект (XAI): обеспечение прозрачности и доверия пользователей в образовательных решениях — концептуальная модель.....666
IBRAGIMOV SIROJIDDIN BAXODIROVICH
Davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatini yuksaltirishga salbiy ta’sir etuvchi omillar, ularni bartaraf etish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari.....676
AHMEDOV SHOHJAHON
ROPO (onlayn o‘rganib, oflayn xarid qilish) effektini hisobga olgan chakana savdo marketing strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslari.....684
ЖУМАНИЯЗОВА ДУРДОНА
Юқори тартибли операторли тенгламалар ечимларининг умумлаштирилган ХАРТОГС қаторларига ёйилмаси.....694
ISAHANOV MUSLIMJON MARIFJON O‘G‘LI
Tuproq unumdorligini oshirishni iqtisodiy rag‘batlantirishda agroekologik to‘lovlar va eko-sxemalarning ahamiyati: Yevropa ittifoqi tajribasi.....705
DEXKANOVA SHAXLOXON SAGDIYEVNA
Sabzavotchilikda biologik aktivlarni baholash va moliyaviy natijani shakllantirishni 41-son BHXS ga muvofiq takomillashtirish.....710
КАДЫРОВ АБДУКАДЫР АМАНОВИЧ
Обеспечение экономической безопасности системы корпоративного управления акционерных компаний Республики Узбекистан.....715
XUDAYAROV OYBEK ODILOVICH
Tijorat banklari biznes modellarini transformatsiya qilishda raqamli bank xizmatlarining o‘rni.....724
XUJANOV ELBEK
Oliy ta’limda LMS asosida talabalar davomati va o‘zlashtirishini monitoring qilish: amaliy yondashuv.....731
MUXAMMADSIDIQOV OTABEK DILSHODBEK O‘G‘LI
Kichik biznesda inqiroz xavfini aniqlashning moliyaviy diagnostika usullari.....740
KADIROV SAXOBIDDIN SHAROFOVICH
Investitsiyalar hisobida xalqaro standartlardan foydalanish.....748
ISAKHANOV MUSLIMJON MARIFJON UGLI
Mechanisms for economic incentives for cultivating cover crops to increase soil fertility: US experience.....754

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

DAVLAT IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
Umumiqtisodiy fanlar kafedrasi mudiri, dotsent
E-mail: maksuda.ataniyazova@mail.ru
https://orcid.org/0009-0000-9403-6693

Annotatsiya. Davlatning iqtisodiyotdagi roli egalik qiluvchi va ishlab chiqaruvchidan tartibga soluvchi va hamkorga qarab o‘zgardi, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) esa bu o‘zgarishning institutsional shakliga aylandi. DXSH davlat egaligidan strategik boshqaruvga o‘tishni faqat fiskal intizom bilan birga qo‘llanilgandagina qo‘llab-quvvatlaydi, degan gipoteza tekshirildi; tarixiy-qiyosiy va hujjatlar tahlili hamda tavsifiy statistika (Jahon banki PPI, XVJning SIP/2025/087 hujjati, XVJning davlat korxonalari (DK) bo‘yicha ma’lumotlari, 2026-yil I chorak DXSH reyestri) qo‘llanildi. O‘zbekistonda imzolangan DXSH shartnomalarining qiymati 2024-yil oxirida taxminan 31 mlrd dollar (YaIMning 27 foizi) bo‘lib, uning taxminan 93 foizi energetikaga to‘g‘ri keladi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shartli majburiyatlar esa YaIMning 15 foizi deb baholanadi; 2020–2026-yillarda DKlar soni 2 965 tadan 1 917 taga kamaygan bo‘lsa-da, ularning aktivlari hamon YaIMning 101 foizini tashkil etadi. DXSHning to‘rt vazifali modeli va fiskal ehtiyotkor siyosatning beshta tamoyili taklif etiladi.
Kalit so‘zlar: Davlat-xususiy sheriklik (DXSH), Davlat iqtisodiyoti, Davlat roli evolyutsiyasi, Xususiylashtirish, Davlat korxonalari, Fiskal xatarlar, Shartli majburiyatlar, Institutsional boshqaruv, Xarajat va samaradorlik nisbati (VfM), O‘zbekiston.

Аннотация. Роль государства в экономике эволюционировала от собственника и производителя к регулятору и партнеру, а государственно-частное партнерство (ГЧП) стало институциональной формой этого перехода. Проверяется гипотеза о том, что ГЧП способствует переходу от государственной собственности к стратегическому управлению лишь при условии фискальной дисциплины; применены историко-сравнительный и документальный анализ и описательная статистика (PPI Всемирного банка, документ МВФ SIP/2025/087, данные МВФ о государственных предприятиях (ГП), реестр ГЧП за I квартал 2026 г.). Объем подписанных контрактов ГЧП в Узбекистане на конец 2024 г. составил около 31 млрд долл. (27% ВВП), около 93% — в энергетике, а прямые и условные обязательства оцениваются в 15% ВВП; число ГП в 2020–2026 гг. сократилось с 2 965 до 1 917, однако их активы по-прежнему составляют 101% ВВП. Предложены четырехфункциональная модель ГЧП и пять принципов фискально осмотрительной политики.
Ключевые слова: Государственно-частное партнерство (ГЧП), государственная экономика, эволюция роли государства, приватизация, государственные предприятия, фискальные риски, условные обязательства, институциональное управление, соотношение цены и качества (VfM), Узбекистан.

Abstract. The role of the state in the economy has shifted from owner and producer to regulator and partner, and public-private partnership (PPP) has become the institutional form of this shift. The study tests the hypothesis that PPP supports the transition from state ownership to strategic governance only when accompanied by fiscal discipline, using historical-comparative and document analysis and descriptive statistics (World Bank PPI, IMF SIP/2025/087, IMF data on state-owned enterprises (SOEs), Q1 2026 PPP registry). The signed value of PPP contracts in Uzbekistan reached about USD 31 billion (27% of GDP) at end-2024, about 93% of it in energy, with direct and contingent liabilities estimated at 15% of GDP; the number of SOEs fell from 2,965 to 1,917 in 2020–2026, yet SOE assets still amount to 101% of GDP. A four-function model of PPP and five principles of fiscally prudent PPP policy are proposed.
Keywords: Public-Private Partnership (PPP), State Economy, Evolution of the State’s Role, Privatisation, State-Owned Enterprises, Fiscal Risks, Contingent Liabilities, Institutional Governance, Value-for-Money, Uzbekistan.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

Davlatning iqtisodiyotdagi o‘rni tarixan o‘zgarmas bo‘lmagan. R.Masgreyv davlatning uchta funksiyasini — resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va iqtisodiyotni barqarorlashtirishni — ajratgan bo‘lsa, bu funksiyalarni kim va qanday ijro etishi davrdan davrga o‘zgardi: davlat avval faqat qonun va tartibni ta’minlovchi, so‘ng yirik sanoat va infratuzilma egasi, keyinchalik esa xususiy sektor bilan hamkorlikda xizmat ko‘rsatuvchi va tartibga soluvchi tomonga aylandi. DXSH ana shu evolyutsiyaning institutsional ifodasi: u davlatning ijtimoiy mas'uliyatini saqlagan holda, loyihani qurish, moliyalash va ishlatish xatarlarini xususiy sherik bilan bo‘lishish imkonini beradi.

Bu jarayonning miqyosi katta. Jahon banki hisobiga ko‘ra, 1990–2016-yillarda past va o‘rta daromadli mamlakatlarda transport, energetika va suv sohalarida xususiy ishtirokli infratuzilma investitsiyalari taxminan 1,6 trillion dollarni (6 400 ga yaqin loyiha) tashkil etgan (Mandri-Perrott & Saha, 2017); 2024-yilda esa faqat bir yilning o‘zida 100,7 mlrd dollar jalb etildi, bu 2019–2023-yillarning o‘rtacha yillik ko‘rsatkichi 83,7 mlrd dollardan yuqori (World Bank, 2025). Global Infrastructure Hub prognoziga ko‘ra, 2040-yilgacha infratuzilmaga taxminan 94 trillion dollar zarur, joriy tendensiyada esa 79 trillion dollar kutilmoqda, ya'ni tirqish taxminan 15 trillion dollarni tashkil etadi (Global Infrastructure Hub, 2024).

O‘zbekiston markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o‘tgan, davlat sektorining ulushi hamon yuqori bo‘lgan mamlakat sifatida bu evolyutsiyaning o‘ziga xos misolidir. XVJ ma’lumotlariga ko‘ra, davlat korxonalari aktivlari 2024-yil oxirida YaIMning 101 foizini tashkil etgan, davlat banklarining bank aktivlaridagi ulushi 63 foiz (o‘rta daromadli mamlakatlarda o‘rtacha taxminan 23 foiz) (Gazeta.uz, 2026a; 2026b). Shu bilan birga DXSH shartnomalarining umumiy qiymati 2024-yil oxirida taxminan 31 mlrd dollarga (YaIMning 27 foizi) yetgan (Dwight, 2025). Demak, DXSH O‘zbekistonda davlat iqtisodiyotini o‘zgartirishning muhim vositasiga aylandi, ammo uning fiskal oqibatlari va tarkibiy muvozanati yetarlicha tahlil qilinmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat roli evolyutsiyasi va DXSHning o‘rni to‘rtta nazariy yondashuv orqali yoritiladi:

Masgreyv (1959) davlat funksiyalarini resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash va barqarorlashtirishga ajratadi. DXSH birinchi funksiyani (infratuzilma va jamoat tovarlarini yetkazib berish) ijro etish shakliga ta’sir qiladi, javobgarlikni esa davlat saqlab qoladi.

D.Nort (North, 1990) institutlarni iqtisodiy natijalarning asosiy omili deb hisoblaydi; O.Uilyamson (Williamson, 1985) esa uzoq muddatli, aktivga xos shartnomalarda tranzaksion xarajatlar va opportunistik xatti-harakat xavfi yuqoriligini ko‘rsatgan. Bu DXSH shartnomalari sifatining institutsional sifatga bog‘liqligini tushuntiradi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

K.Xud (Hood, 1991) hamda D.Osborn va T.Gebler (Osborne & Gaebler, 1992) davlat boshqaruvida bozor mexanizmlari va natijaga yo‘naltirilganlik g‘oyalarini ilgari surgan; S.Osborn (Osborne, 2006) esa yangi bosqichni — sheriklik va tarmoqlar orqali boshqaruvni (“yangi davlat governansi”) asoslagan.

M.Mazzukato (Mazzucato, 2013) davlatni faqat nuqsonlarni tuzatuvchi emas, balki innovatsiyalarda tavakkalchilikni o‘z zimmasiga oluvchi strategik subyekt deb talqin qiladi. Bu DXSHni infratuzilma moliyalash vositasidan innovatsion hamkorlik platformasiga kengaytirish asosidir.

DXSHning xalqaro samaradorligi E.Savas (Savas, 2000), X.Xodj va K.Grev (Hodge & Greve, 2007), J.Roerix va boshqalar (Roehrich et al., 2014), E.Engel, R.Fisher va A.Galetovich (Engel et al., 2014), D.Grimsi va M.Lyuis (Grimsey & Lewis, 2002) tomonidan o‘rganilgan; fiskal xatarlar masalasi esa X.Xemming va boshqalar (Hemming et al., 2006) hamda XVJ ekspertlari (Dwight, 2025) tomonidan yoritilgan. Umumiy xulosa: DXSH natijalari kontekst va institutsional sifatga kuchli bog‘liq.

METODOLOGIYA

Tadqiqot dizayni — tarixiy-qiyosiy va hujjatlar tahlilini tavsifiy statistika bilan birlashtirgan aralash yondashuv. Ma’lumot manbalari: (1) nazariy va tarixiy adabiyotlar (Masgreyv, Nort, Xud, Osborn, Mazzukato va boshqalar); (2) xalqaro statistika — Jahon banki PPI 2024 hisoboti va 1990–2016-yillar uchun umumlashma, Global Infrastructure Hub; (3) XVJning 2025-yil iyun oyidagi SIP/2025/087 hujjati (DXSH fiskal xatarlari va O‘zbekiston bo‘yicha raqamlar) hamda XVJ Selected Issues hisobotidagi davlat korxonalari bo‘yicha ma’lumotlar (Gazeta.uz orqali ikkilamchi manba sifatida); (4) milliy huquqiy hujjatlar (O‘RQ-537, PQ-308) va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil I chorak DXSH reyestri ma’lumotlari.

Usullar: tarixiy periodizatsiya (davlat roli bosqichlari — muallif tizimlashtirishi); kontent-tahlil; tavsifiy statistika (ulush, o‘sish va qisqarish sur'ati hisob-kitoblari manba raqamlari asosida muallif tomonidan bajarildi); konseptual modellashtirish. Cheklovlar: birinchidan, DKlar bo‘yicha XVJ ma’lumotlari ikkilamchi manba (Gazeta.uz) orqali olingan; ikkinchidan, DXSH shartnomalari qiymati (majburiyat) va xususiylashtirish tushumi (sotuv natijasi) o‘lchov jihatidan bevosita solishtirilmaydi, shuning uchun ular faqat tartib (order of magnitude) sifatida taqqoslandi; uchinchidan, bosqichlar taqsimoti shartli va mamlakatlarda vaqt bo‘yicha farqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili asosida davlat roli evolyutsiyasining beshta bosqichi aniqlandi (1-jadval). Asosiy xulosa: DXSH yangi hodisa emas — XIX asr xususiy konsessiyalaridan boshlab mavjud, ammo uning strategik ahamiyati davlat egalik qiluvchidan hamkorga o‘tgan 1990-yillardan keyin ortdi (1992-yilda Buyuk Britaniyada PFI dasturi boshlangan).

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

1-jadval

Davlat roli evolyutsiyasi bosqichlari va DXSHning o‘rni

Bosqich (taxminiy davr)	Nazariy asos	Davlatning roli	DXSHning o‘rni	Misol/dalil
1. Klassik liberal davlat (XIX asr – 1930-yillar)	Cheklangan davlat; Masgreyvning taqsimlash funksiyasi	Qonun va tartib, minimal infratuzilma	Xususiy konsessiyalar — DXSH prototipi	Xususiy temir yo‘l va kanal kompaniyalari
2. Keyns va farovonlik davlati (1930–1970-yillar)	Faol fiskal siyosat; barqarorlashtirish funksiyasi	Egalik qiluvchi va ishlab chiqaruvchi; milliylashtirish	Ikkinchi darajali	Strategik tarmoqlarning davlat tasarrufida bo‘lishi
3. Xususiylashtirish va bozor islohotlari (1980–1990-yillar)	Neoklassik; institutsional iqtisodiyot (Nort, Uilyamson)	Egalikdan chiqish, tartibga solish	Yangi vosita sifatida paydo bo‘ldi	Buyuk Britaniyada PFI (1992)
4. NPM va sheriklik governansi (1990–2000-yillar)	Xud (1991); Osborn va Gebler (1992); Osborn (2006)	Xizmatlar buyurtmachisi va tartibga soluvchi	Keng tarqaldi, VfM asosida baholanadi	1990–2016-yillarda ~1,6 trln $, ~6 400 loyiha (PPI)
5. Strategik va tadbirkor davlat, fiskal intizom (2008-yildan keyin)	Mazzukato (2013); fiskal xatarlar adabiyoti	Hamkor, innovatsiya va xatar tashuvchi, fiskal nazoratchi	Raqamli, energetik, ijtimoiy infratuzilma; limit va monitoring bilan	2024-yilda 100,7 mlrd $ (PPI)

Manba: muallif tizimlashtirishi; PPI ma’lumotlari — Jahon banki (2025) va Mandri-Perrott & Saha (2017).

PPI ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda past va o‘rta daromadli mamlakatlarda 58 ta davlatda 315 ta loyiha doirasida 100,7 mlrd dollar jalb etildi (2023-yilda 68 ta davlatda 324 ta loyiha, 87,1 mlrd dollar); tarmoqlar bo‘yicha energetika 67,9 mlrd, transport 20,6 mlrd, AKT 10,5 mlrd dollarni tashkil etdi (World Bank, 2025). Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2024-yildagi hajm 2019–2023-yillarning o‘rtacha ko‘rsatkichidan (83,7 mlrd dollar) 20,3 foiz yuqori; shu bilan birga davlatlar soni qisqargani bozor kontsentratsiyasi ortayotganini bildiradi. Har uchinchi loyiha rivojlanish moliya institutlari ko‘magiga ega bo‘lgan, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri kreditlari 6,0 dan 12,6 mlrd dollarga oshgan. Demak, zamonaviy davlat DXSHda tobora ko‘proq kafil va moliyaviy katalizator sifatida ishtirok etmoqda.

DXSHning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyati uning xatarlari bilan birga baholanishi kerak. 2-jadvalda XVJ hujjatida umumlashtirilgan xalqaro dalillar keltirilgan.

2-jadval

DXSH xatarlari bo‘yicha xalqaro empirik dalillar

Xatar turi	Empirik dalil	Ahamiyati
Qayta muzokaralar (Lotin Amerikasi, ~1 000 loyiha)	Elektr energiyasida 10%, transportda 55%, suv ta’minotida 75% loyiha	Xatar tarmoqqa bog‘liq
Qayta muzokaralar (global tadqiqot)	O‘rtacha 33% (Sharqiy Osiyoda 12% dan Lotin Amerikasida 58% gacha)	Mintaqaviy institutsional farq
Optimizm xatosi (258 transport loyihasi)	Xarajatlar rejadan o‘rtacha 28% yuqori	Narx xatosi
Talab prognozi (temir yo‘l)	Haqiqiy talab prognozning o‘rtacha yarmi	Tushum xatari davlatga o‘tadi

Xatar turi	Empirik dalil	Ahamiyati
Kafolatlar tarixi	Kolumbiya ~2 mlrd $ to‘lagan; Meksika 7,7 mlrd $ yo‘l DXSH qarzini zimmasiga olgan	Yashirin majburiyat
Shartli majburiyatlar (MENA, 1990–2018)	Yiliga o‘rtacha YaIMning ~0,5 foizi	Uzoq muddatli fiskal yuk
Institutsional islohot samarasi (Chili)	Qayta muzokaralar ulushi 25% dan ortiqdan 1% dan pastgacha tushgan	Qonun sifati natijani o‘zgartiradi

Manba: Dwight (2025), IMF SIP/2025/087 asosida muallif tizimlashtirishi.

3-jadvalda O‘zbekistonda davlat sektori va DXSHning asosiy ko‘rsatkichlari umumlashtirilgan.

3-jadval

O‘zbekistonda davlat sektori va DXSH ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Qiymati	Manba
Davlat korxonalari soni: 2020-yil → 2026-yil fevral	2 965 → 1 917 (−35,3%)	Gazeta.uz (2026a, 2026b)
DKlar aktivlari (2024-yil oxiri)	YaIMning 101 foizi	Gazeta.uz (2026a)
Davlat banklarining bank aktivlaridagi ulushi	63% (o‘rta daromadli mamlakatlarda ~23%)	Gazeta.uz (2026b)
Foydali DKlar ulushi (2024)	982/2 148 = 45,7%	Gazeta.uz (2026b)
Xususiylashtirish tushumi (2021–2024)	Taxminan 2,5 mlrd $	Gazeta.uz (2026b)
Imzolangan DXSH shartnomalari qiymati (2024-yil oxiri)	~31 mlrd $ (YaIMning 27%)	Dwight (2025)
To‘g‘ridan-to‘g‘ri va shartli majburiyatlar	YaIMning ~15 foizi	Dwight (2025)
2024-yilda imzolangan DXSH	11 mlrd $ (YaIMning ~10%)	Dwight (2025)
Energetika ulushi (2019–2024)	~93%	Dwight (2025)
PQ-308 bo‘yicha 2025–2030 rejasi; DXSH zaxirasi cho‘qqisi	30,2 mlrd $; 2026-yilda YaIMning ~34% → 2030-yilda 27,5%	Dwight (2025)
2025-yil byudjetida yangi DXSH uchun yillik limit	6,5 mlrd $ (YaIMning ~6%)	Dwight (2025)
DXSH holati	Byudjetdan va YaIMning 60% li qarz chegarasidan tashqarida hisoblanadi	Dwight (2025)

Manba: Dwight (2025) va Gazeta.uz (2026a, 2026b) asosida; foizli o‘zgarish va nisbatlar muallif hisob-kitoblari.

3-jadval va 1-rasm quyidagi natijalarni beradi:

Davlat sektorining qisqarishi sekin va ko‘proq “chiqarib tashlash” orqali: 2020-yildan buyon chiqib ketgan 2 845 ta DKning 46,2 foizi tugatilgan, 26,6 foizi qayta tashkil etilgan, atigi 18,1 foizi (515 ta) xususiylashtirilgan va 9,1 foizi (260 ta) ustav fondlariga yoki DXSH loyihalariga berilgan.

DXSH hajmi xususiylashtirishdan kattaroq, ammo bir xil emas: DXSH shartnomalari qiymati (~31 mlrd $) 2021–2024-yillardagi xususiylashtirish tushumidan (~2,5 mlrd $) taxminan 12 baravar katta. Bu o‘lchamlar turli xarakterga ega (majburiyat va sotuv tushumi), lekin DXSH davlat sektori o‘zgarishida asosiy kanalga aylanganini ko‘rsatadi.


Tarmoq konsentratsiyasi: 2019–2024-yillarda DXSH qiymatining ~93 foizi energetikada; 2026-yil I chorakda esa (59 ta loyiha, 547,2 mln $) energetika

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

ulushi 65,2 foiz, transport 24,5 foiz bo‘lib, ta'lim sohasida 33 ta loyiha qiymatning 4,5 foizini beradi. Bu o‘tgan davrga nisbatan diversifikatsiya belgisi, ammo bir choraklik namuna asosida qat’iy xulosa qilib bo‘lmaydi.

Institutsional sifat: reyestrdagi monitoring qilingan 193 loyihadan 85 tasida (44,0 foiz) xususiy sherik faoliyat yuritmaydi yoki tugatilgan (gov.uz, 2026).

Fiskal xatar: DXSH byudjet va qarz chegarasidan tashqarida hisoblangani holda shartli majburiyatlari YaIMning taxminan 15 foizini tashkil etadi; XVJ yillik limitni kelgusida pasaytirish zarurligini ta’kidlaydi (Dwight, 2025).



Manba: Gazeta.uz (2026b) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

1-rasm. 2020-yildan 2026-yil fevralgacha chiqib ketgan 2 845 ta davlat korxonasining chiqish yo‘llari bo'yicha tarkibi

Natijalar asosida DXSHning davlat iqtisodiyoti evolyutsiyasidagi o‘rni to‘rt vazifa orqali ifodalanadi:

Moliyaviy vazifa: byudjetdan tashqari xususiy kapitalni jalb etish (2024-yilda jahon bo‘yicha 100,7 mlrd $, O‘zbekistonda ~11 mlrd $ yangi shartnoma);

Boshqaruv vazifasi: davlat xizmatlarini natijaga (KPI, VfM) asoslangan shartnomalar orqali yetkazib berish va xususiy boshqaruv kompetensiyasini jalb etish;

Institutsional vazifa: davlatning egalik qiluvchi rolidan tartibga soluvchi va hamkor rolga o‘tishi, DKlarning ustav fondlari yoki DXSHga berilishi (260 ta korxona);

Innovatsion vazifa: texnologiya, raqamli va yashil infratuzilmada xatarni bo‘lishish va yangi bozorlarni shakllantirish.

Modelning muhim sharti — fiskal vazifa: DXSH yuqoridagi to‘rt vazifani faqat shartli majburiyatlar hisobga olinib, limit bilan boshqarilganda bajaradi. Aks holda DXSH evolyutsiya vositasidan yashirin qarz kanaliga aylanishi mumkin.

Natijalar DXSH adabiyotidagi asosiy xulosani — natijalar kontekst va institutsional sifatga bog‘liqligini (Hodge & Greve, 2007; Roehrich et al., 2014) — davlat iqtisodiyoti evolyutsiyasi darajasida tasdiqlaydi. Xud (1991) va Osborn (2006) tasvirlagan davlat roli o‘zgarishi O‘zbekistonda ham ko‘rinadi: DKlar soni

uchdan bir qismga yaqin qisqargan va DXSH hajmi YaIMning 27 foiziga yetgan. Biroq XVJ baholashicha, xususiylashtirish o‘z maqsadlariga to‘liq erishmagan: 2021–2025-yillar strategiyasi raqobatbardosh sohalarda davlat ishtirokini 75 foizga qisqartirishni ko‘zlagan, ammo DKlarning 80–84 foizi hamon raqobatbardosh tarmoqlarda faoliyat yuritadi (Gazeta.uz, 2026b). Bu holatda DXSH xususiylashtirishga muqobil emas, balki uni to‘ldiruvchi vosita bo‘lib, ikkalasi yagona davlat egalik siyosati doirasida muvofiqlashtirilishi lozim.

Ilgari surilgan gipoteza qisman tasdiqlandi: DXSH davlat rolini o‘zgartirishning amaliy kanali ekani ma’lumotlar bilan tasdiqlandi, fiskal intizom sharti esa xalqaro dalillar (qayta muzokaralar, kafolatlar) va O‘zbekiston raqamlari (YaIMning 15 foiz majburiyati, 93 foiz energetika konsentratsiyasi) orqali asoslandi; ammo bu munosabatning miqdoriy ko‘rinishini ko‘p yillik loyiha ma’lumotlari asosida ekonometrik tekshirish zarur.

Tavsiyalar (fiskal ehtiyotkor DXSH siyosatining beshta tamoyili):

1. Yagona davlat investitsiya tizimi va saralash: DXSH loyihalarini tayyorlashning bir necha bosqichida Iqtisodiyot va moliya vazirligi nazoratini (gatekeeping) kuchaytirish;
2. Limit va stok chegarasi: yillik yangi DXSH limitini va umumiy DXSH zaxirasining YaIMga nisbatan chegarasini belgilash; shartli majburiyatlarni hisobotlarda ochiq ko‘rsatish;
3. Tarmoq diversifikatsiyasi: energetikadan tashqari suv, ijtimoiy va raqamli infratuzilmada kichik loyihalarni paketlab (bundling) yirik investorlar uchun jozibador qilish;
4. DXSH va xususiylashtirishni muvofiqlashtirish: davlat egaligi siyosatida qaysi korxona davlatda qolishi, qaysi biri xususiylashtirilishi, DXSH yoki tugatilishi shaffof belgilanishi (XVJ tavsiyasiga mos);
5. Qayta muzokaralarni cheklash va monitoring: bevosita muzokaralar va tashabbusli takliflarni cheklash, KPI va muntazam hisobot tizimini kuchaytirish, faol bo‘lmagan sheriklarni erta aniqlash.

Cheklovlar va keyingi yo‘nalishlar. Tadqiqot ikkilamchi ma’lumotlarga tayanadi. Kelgusida (a) DXSH loyihalari bo‘yicha loyiha darajasidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish, (b) DXSH va xususiylashtirishning iqtisodiy samarasini ekonometrik baholash, (c) hududiy (jumladan, Xorazm viloyati) darajada DXSHning rolini o‘rganish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Tadqiqot DXSH davlat iqtisodiyotining evolyutsiyasida egalikdan hamkorlikka o‘tishning institutsional ko‘prigi vazifasini bajarishini ko‘rsatdi. Jahon miqyosida 1990–2016-yillarda taxminan 1,6 trillion dollar, 2024-yilning o‘zida esa 100,7 mlrd dollar xususiy infratuzilma investitsiyasi jalb etilgan; O‘zbekistonda DXSH shartnomalari qiymati 2024-yil oxirida taxminan 31 mlrd dollarga (YaIMning 27 foizi) yetgan.

Shu bilan birga DXSH ahamiyati fiskal intizomga bog‘liq: shartli majburiyatlar YaIMning taxminan 15 foizini tashkil etadi, qiymatning ~93 foizi

energetikada to‘plangan, monitoring qilingan loyihalarning 44 foizida xususiy sherik faol emas, DKlar aktivlari esa hamon YaIMning 101 foiziga teng. Shu bois taklif etilgan to‘rt vazifali model va fiskal ehtiyotkor DXSH siyosatining beshta tamoyili (yagona saralash tizimi, limit, diversifikatsiya, xususiylashtirish bilan muvofiqlashtirish, qayta muzokaralarni cheklash va monitoring) DXSHni davlat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning barqaror vositasiga aylantirish uchun amaliy asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2019). Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida (O‘RQ–537-son, 2019-yil 10-may). Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/4329270

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. (2024). 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ–308-son, 2024-yil 30-avgust). https://gov.uz/oz/pages/Davlat_xususiy_sheriklik_loyihalari

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2026). Public-Private Partnership activities in the first quarter of 2026. https://gov.uz/en/imv/news/view/160374

4. Dwight, L. (2025). Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons (IMF Selected Issues Paper SIP/2025/087; IMF Country Report No. 25/144). International Monetary Fund. https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/Selected-Issues-Papers/2025/English/SIPEA2025087.ashx

5. Gazeta.uz. (2026a, 26-iyun). O‘zbekistondagi davlat korxonalarining 80 foizdan ortig‘i raqobatdosh sektorlarda faoliyat yuritmoqda — XVJ. https://www.gazeta.uz/oz/2026/06/26/gov-companies/

6. Gazeta.uz. (2026b, 25-iyul). O‘zbekistonda davlat korxonalarini xususiylashtirish dastlabki maqsadlariga erisha olmadi — XVJ. https://www.gazeta.uz/oz/2026/07/25/privatization/

7. World Bank. (2025). Private Participation in Infrastructure (PPI) 2024 Annual Report. https://ppi.worldbank.org/content/dam/PPI/documents/PPI-2024-Annual-Report-Interactive.pdf

8. Mandri-Perrott, C., & Saha, D. (2017, October 10). Slight bump in half-year private investment in infrastructure: A sign of recovery? World Bank Blogs. https://blogs.worldbank.org/en/ppps/slight-bump-half-year-private-investment-infrastructure-sign-recovery

9. Global Infrastructure Hub. (2024). Global Infrastructure Outlook. https://outlook.gihub.org/

10. Hemming, R. (Ed.). (2006). Public-Private Partnerships, Government Guarantees, and Fiscal Risk. International Monetary Fund.

11. Musgrave, R. A. (1959). The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. McGraw-Hill.

12. North, D. C. (1990). Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press.
13. Williamson, O. E. (1985). The Economic Institutions of Capitalism. Free Press.
14. Hood, C. (1991). A public management for all seasons? Public Administration, 69(1), 3–19.
15. Osborne, D., & Gaebler, T. (1992). Reinventing Government. Addison-Wesley.
16. Osborne, S. P. (2006). The new public governance? Public Management Review, 8(3), 377–387.
17. Mazzucato, M. (2013). The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. Anthem Press.
18. Savas, E. S. (2000). Privatization and Public-Private Partnerships. Chatham House.
19. Hodge, G. A., & Greve, C. (2007). Public–private partnerships: An international performance review. Public Administration Review, 67(3), 545–558.
20. Roehrich, J. K., Lewis, M. A., & George, G. (2014). Are public–private partnerships a healthy option? A systematic literature review. Social Science & Medicine, 113, 110–119.
21. Engel, E., Fischer, R., & Galetovic, A. (2014). The Economics of Public-Private Partnerships: A Basic Guide. Cambridge University Press.
22. Grimsey, D., & Lewis, M. K. (2002). Evaluating the risks of public private partnerships for infrastructure projects. International Journal of Project Management, 20(2), 107–118.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy